Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В B2B- И B2C-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIYAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIYAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOII, IQTISODII VA SHAHSII OMILLARNING QIYOSII NAZARII VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOII QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIIAVII RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSII MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODII VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIIAVII MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODII-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODII SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQARISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	
МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ.....	2012
Садыков Жaxonгир Насырджанович	



TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHLTLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHLTLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIV TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIY-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHLTLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	
DUNYO MAMLUKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	



ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIYAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY Tajribalari	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY Tajribalari VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Гольшева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIYAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	
HUDUDIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abduraimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	



O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI.....	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	2260
Temirov Muradjon Najmiddinovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI	2266
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
KORXONALARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA GLOBAL BRENDLAR TAJRIBASI	2275
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
ESTIMATING DEMAND AND SUPPLY FOR COTTON-TEXTILE CLUSTER PRODUCTS	2281
Nasimov Bakhtiyor Vasievich	
MOLIVAVIY HISOBOT AUDITINI REJALASHTIRISH JARAYONINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	2288
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR MOLIVAVIY FAOLIYATIDA NATIJA SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	2292
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	
XORAZM VILOYATIDA YOSHLAR BANDLIGINI OSHIRISH ORQALI INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	2297
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
O'ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONINING JORIY HOLATI TAHLILI	2302
Umarova Malika Baxtiyarovna	
BARQAROR IQTISODIYOTNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINING SAMARADORLIGI	2311
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	2315
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
IJARANING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	2318
Djumayeva Guzal Axtamovna	
AGROSANOAT INNOVATION MARKETING FAOLIYATI YURITISH AMALIYOTINING MILLIY XUSUSIYATLARI VA USTUVORLIKLARI TAHLILI.....	2324
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
BALIQCILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON IQTISODIY MUHITIDA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	2332
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich	



TIJORAT BANKLARINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2338
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
RAQAMLI TURIZM TIZIMINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	2344
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISHDA KORXONAGA NISBATAN RAQOBAT BOSIMINI BAHOLASHNINING IMITATSION MODEL (OLMALIQ KON METALLURGIYA KOMBINATI AJ KORXONASI MISOLIDA)	2348
Nazarova Sitorabonu Sharofiddinovna	
DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	2357
Ziyayeva Mukhtasar Mansurjanovna	
SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING IQLIM O'ZGARISHLARIGA TA'SIRI	2362
Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna	
FUNDAMENTALS OF FORMING ACCOUNTING POLICIES FOR LEASING COMPANIES BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS	2368
Baxadirov Alisher Komilovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH.....	2368
Jahongir Gadayev, Zarif Axrorov	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O'RNI	2372
Kasimova Zilola G'ulomiddin qizi	
СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОВАРНОЙ ПОЛИТИКИ НА ЗАРУБЕЖНЫХ РЫНКАХ	2386
Абдуллаев Азиз Курбанович	
XUSUSIY KAPITALNING OPTIMAL TARKIBINING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	2391
Qurbonov Xayrilla	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2399
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2404
Voxidov Oybek Roziqovich	
BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRILISHINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	2409
Muqimov Asrorjon Rasulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAROITIDA DDOS HUYUMLARIGA QARSHI SUN'IY INTELLEKT AGENTLARINI QO'LLASH.....	2413
Bekov Sanjar Nigmandjonovich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2418
Begimova Dilshoda Komiljonovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA ESG INTEGRATSIYASI VA YASHIL SUG'URTA MAHSULOTLARINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	2424
Kadirov Raxim Karimovch	
ECONOMIC ASSESSMENT OF MEASURES TO REDUCE THE SHORTAGE OF FREIGHT WAGONS IN RAILWAY TRANSPORT	2429
Egamberdieva Khurshidakhon Alisherovna	
TIJORAT BANKLARDA OPERATSION RISKLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	2435
Nishanov Shoazam Baxramovich	
O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI	2440
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	



ПРЕДПОСЫЛКИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	2445
Каракулов Фарход Зайпудинович	
O'ZBEKISTON TURIZM SANOATI MUVAFFAQIYATINI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI	2451
Esonboyev Baxodir Bakir o'g'li	



O'ZBEKISTON TURIZM SANOATI MUVAFFAQIYATINI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI

Esonboyev Baxodir Bakir o'g'li

O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik akademiyasi,
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrası o'qituvchisi

E-mail: bakhodiresonboyev2909@gmail.com

ORCID: 0009-0001-8988-9808

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmog'iga aylanib borayotgan turizm sanoatining samaradorligini baholashda qo'llaniladigan an'anaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunga qadar soha muvaffaqiyati asosan miqdoriy ko'rsatkichlar ya'ni turistlar oqimi bilan o'lchanib kelmoqda, biroq iqtisodiy sifat va barqaror rivojlanish darajasini aks ettiruvchi kompleks indikatorlar tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bundan kelib chiqib, turizm industriyasining muvaffaqiyatini baholashda "Ko'p o'lchamli baholash mexanizmi" taklif etiladi. Mazkur mexanizm o'z ichiga iqtisodiy multiplikator samarasi, hududiy infratuzilmaning yuklanish indeksi, xizmatlar eksportining diversifikatsiyasi hamda raqamli transformatsiyaning turizm mahsuloti tannarxiga ta'sirini baholashni oladi. Ushbu tadqiqot natijalari turizm sanoatidagi muvaffaqiyatni baholashda davlat siyosatini shakllantirish va investitsiya dasturlarini rejalashtirishda nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Turizm sanoati, muvaffaqiyat ko'rsatkichlari, turizm statistikasi, baholash mexanizmlari, strategik rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, barqaror turizm.

Abstract. This article analyzes traditional approaches used to assess the effectiveness of the tourism industry, which is becoming a strategic sector of the economy of Uzbekistan. The relevance of the study is that to date, the success of the industry has been measured mainly by quantitative indicators, namely the flow of tourists, but a comprehensive system of indicators reflecting the level of economic quality and sustainable development has not been sufficiently developed. Based on this, a "Multidimensional Assessment Mechanism" is proposed to assess the success of the tourism industry. This mechanism includes the assessment of the economic multiplier effect, the load index of regional infrastructure, the diversification of service exports, and the impact of digital transformation on the cost of tourism products. The results of this study can serve as a theoretical basis for formulating state policy and planning investment programs in assessing the success of the tourism industry.

Key words: Tourism industry, success indicators, tourism statistics, assessment mechanisms, strategic development, digital economy, sustainable tourism.

Аннотация. В данной статье анализируются традиционные подходы к оценке эффективности туристической отрасли, которая становится стратегическим сектором экономики Узбекистана. Актуальность исследования заключается в том, что до настоящего времени успех отрасли измерялся в основном количественными показателями, а именно потоком туристов, но комплексная система показателей, отражающая уровень экономического качества и устойчивого развития, недостаточно разработана. На основе этого предлагается «Многомерный механизм оценки» для оценки успеха туристической отрасли. Этот механизм включает оценку мультипликативного эффекта экономики, индекса загрузки региональной инфраструктуры, диверсификации экспорта услуг и влияния цифровой трансформации на себестоимость туристических продуктов. Результаты данного исследования могут служить теоретической основой для разработки государственной политики и планирования инвестиционных программ при оценке успеха туристической отрасли.

Ключевые слова: Туристическая отрасль, показатели успеха, туристическая статистика, механизмы оценки, стратегическое развитие, цифровая экономика, устойчивый туризм.



KIRISH

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida turizm industriyasi nafaqat xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy qismi, balki milliy iqtisodiyotlarning barqarorligini ta'minlovchi, eksport salohiyatini yuqori darajada diversifikatsiya qiluvchi va hududiy mutanosiblikni yuzaga keltiruvchi strategik drayverga aylandi.¹ O'zbekiston Respublikasining so'nggi yillardagi iqtisodiy islohotlar kun tartibida turizm sohasini iqtisodiyotning "lokomotivi" sifatida rivojlantirish ustuvor vazifa etib belgilangan bo'lib, bu borada viza rejimining liberallashtirilishi, turistik infratuzilmaning modernizatsiyalashuvi va xalqaro brendning shakllantirilishi bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.² Biroq, sohada kuzatilayotgan miqdoriy o'sish sur'atlari, xususan, sayyohlar oqimining keskin ortishi har doim ham iqtisodiy sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasi bilan hamohang kechmayotganligi mazkur yo'nalishda ilmiy-metodologik izlanishlar olib borish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi kunga qadar turizm sanoatidagi muvaffaqiyatni baholashda asosan ekstensiv ko'rsatkichlar – kelayotgan xorijiy sayyohlar soni va ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi kabi an'anaviy yondashuvlar ustunlik qilmoqda. Vaholanki, zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari turizm muvaffaqiyatini faqatgina statistik oqim bilan emas, balki "har bir sayyohning o'rtacha xarajati", "bir kechalik yashashdan tushgan sof daromad" (RevPAR), "turizm multiplikatori samarasi" hamda "destinatsiyalarning ekologik va infratuzilmaviy yuklanish darajasi" kabi murakkab indikatorlar orqali o'lchashni taqozo etmoqda. O'zbekistonda ushbu ko'rsatkichlarni tizimli hisoblash va ularni davlat investitsiya siyosati bilan integratsiya qilish mexanizmlarining mukammal emasligi, ko'p hollarda sohadagi real holatni baholashda nomutanosibliklarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa turizm industriyasining muvaffaqiyatini baholashda faqat miqdoriy emas, balki qiymatga yo'naltirilgan va barqaror rivojlanish prinsiplariga asoslangan ko'p o'lchamli mexanizmlarni ishlab chiqishning dolzarbligini belgilaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida turizm sanoati samaradorligini baholashning xalqaro standartlari tahlil qilinib, milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari, raqamlashtirish darajasi va infratuzilmaviy salohiyatini hisobga oluvchi integrallashgan indikatorlar tizimini yaratish masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistonning turizm sektori va uning tarkibiy infratuzilmasi olingan bo'lib, asosiy maqsad – sohadagi yutuqlarni aniq iqtisodiy modellar asosida baholash va davlat strategik qarorlarini shakllantirish uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZU BO'YICHA ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm industriyasining iqtisodiy samaradorligini baholash va uning ijtimoiy-iqtisodiy tizimga ta'sirini tahlil qilish masalalari zamonaviy iqtisodiyot fanining murakkab yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Xalqaro miqyosda turizm iqtisodiyotining nazariy-metodologik asoslari Maykl Porter, Duglas Frextling³, Rixard Butler va Norbert Vanhove kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Xususan, M. Porter o'zining raqobatbardoshlik nazariyasida turizm destinatsiyalarining muvaffaqiyatini faqat tabiiy resurslar bilan emas, balki innovatsion infratuzilmaviy klasterlarning o'zaro integratsiyalashuvi bilan bog'laydi.⁴ Uning fikricha, turizm klasterlari ixtisoslashgan xizmatlar sifatini oshirish orqali tarmoqning yalpi samaradorligini ta'minlaydi. Taniqli iqtisodchi D. Frextling turizmning iqtisodiy ta'sirini o'lchashda faqatgina to'g'ridan-to'g'ri tushumlarga tayanmaslikni, balki "Turizm sun'iy yo'ldosh hisoblari" (TSA) tizimi orqali bilvosita va induksiya bilan samaralarni (multiplikativ effekt) hisobga olish zarurligini ilmiy asoslab bergan. Bu yondashuv turizmga kiritilgan investitsiyaning turdosh tarmoqlar (transport, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati) rivojiga qo'shayotgan hissasini baholash imkonini beradi. Shuningdek, R. Butler destinatsiyaning hayotiy sikli modelida muvaffaqiyat ko'rsatkichlarini vaqt omili va ekologik sig'im bilan aloqadorlikda ko'rib chiqadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan N. To'xlijev va T. Abdullaeva O'zbekiston sharoitida turizm xizmatlari bozorini shakllantirishning institutsional asoslari va marketing strategiyalarini tadqiq etishgan.⁵ Ularning ishlarida turizm salohiyatini baholashda hududiy o'ziga xosliklar va tarixiy-madaniy meros obyektlarining iqtisodiy aylanmadagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotchi I.S. Tuxfatullin turizm boshqaruvini takomillashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini ilgari surgan bo'lsa, B. Safarov turizm sohasini ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish metodologiyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan.⁶

Biroq, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm infratuzilmasining raqobatbardoshligini va muvaffaqiyatini baholashda "Ko'p o'lchamli baholash mexanizmi"dan foydalanish, xususan, raqamli transformatsiya indeksini iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan integratsiyalash masalalari hali yetarli

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

2 O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri).

3 Frechtling, D.C. (2012). The Economic Impact of Tourism: Overview and Concepts. Routledge.

4 Porter, M.E. (1998). On Competition. Harvard Business Review Book.

5 Tuxlijev N., Abdullayeva T. (2020). Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik. Toshkent.

6 Safarov B.S. (2022). Turizm sohasini ekonometrik modellashtirishning nazariy va uslubiy asoslari. Monografiya.



darajada kompleks o'rganilmagan. Ushbu bo'shliqni to'ldirish mazkur maqolaning asosiy tadqiqot obyekti belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston turizm sanoatidagi muvaffaqiyatni baholash uchun tizimli tahlil va qiyosiy-mantiqiy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida an'anaviy statistik ma'lumotlarni sifat ko'rsatkichlari bilan sintez qilishga qaratilgan "Ko'p o'lchamli baholash mexanizmi" tanlab olindi. Ushbu mexanizm sohani baholashda uchta asosiy yo'nalishni qamrab oladi.

Birinchi yo'nalishda ekonometrik tahlil va multiplikativ samaradorlik metodidan foydalanildi. Bunda turizm sanoatining faqatgina bevosita daromadlari masalan, mehmonxona tushumlari emas, balki uning turdosh tarmoqlarga – transport, umumiy ovqatlanish, milliy hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish sohalariga ko'rsatadigan bilvosita ta'siri tahlil qilindi. Bu metod turizmga yo'naltirilgan investitsiyalarning iqtisodiyotdagi "zanjir reaksiyasi"ni aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchi metodologik bosqichda barqaror rivojlanish va infratuzilmaviy sig'im (Carrying Capacity) tahlili qo'llanildi.⁷ Mazkur metod yordamida turistik maskanlarning jismoniy infratuzilmasi ya'ni yo'llar, mehmonxonalar, axborot markazlari kelayotgan turistlar oqimiga qanchalik javob bera olishi o'rganildi. Bu yerda muvaffaqiyat ko'rsatkichi sifatida obyektlarning soni emas, balki ularning sifat darajasi va turistlarning mamnunlik koeffitsiyenti asosiy mezon qilib olindi.

Uchinchi yo'nalishda raqamli transformatsiyani baholash metodikasi ishlab chiqildi. Bunda turizm sanoatining muvaffaqiyati sohaning raqamli iqtisodiyotga integratsiyalashuv darajasi bilan o'lchanadi. Metodologiya doirasida onlayn xizmatlarning ommabopligi, elektron to'lov tizimlarining qamrovi va turistik ma'lumotlarning raqamli ochiqligi kabi indikatorlar tizimlashtirildi.

Tadqiqotning empirik bazasini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Turizm qo'mitasining rasmiy hisobotlari, shuningdek, xalqaro reyting agentliklarining dinamik ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda mantiqiy guruhlash va ekspert baholash metodlaridan foydalanildi, bu esa olingan natijalarning xolisligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. Mazkur metodologik yondashuv turizm sohasidagi o'sishni nafaqat raqamlarda, balki iqtisodiy sifat o'zgarishlarida ko'rish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston turizm sanoatidagi muvaffaqiyat ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish natijasida sohada miqdoriy o'sishdan sifat bosqichiga o'tish tendensiyasi aniqlandi. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi nafaqat sayyohlar oqimi hisobiga, balki xizmatlar ko'lamining kengayishi va raqamli infratuzilmaning rivojlanishi evaziga barqaror o'sib bormoqda.

O'tkazilgan tahlillar natijasida turizm sanoatidagi muvaffaqiyatni baholashning an'anaviy va innovatsion – ko'p o'lchamli ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovutlar quyidagi jadvalda tizimlashtirildi (1-jadval):

1-jadval. O'zbekiston turizm sanoati muvaffaqiyatini baholash indikatorlarining qiyosiy tahlili (2019-2024 yy. tendensiyalari asosida)⁸

Baholash yo'nalishlari	An'anaviy ko'rsatkichlar	Innovatsion ko'p o'lchamli	Ijoiy natija/Samara
Iqtisodiy ta'sir	Kelgan sayyohlar soni: 6.7 mln kishi	Bir sayyohning o'rtacha xarajati va multiplikativ: 197 dan 350 gacha o'sgan	Turdosh tarmoqlarda daromadning 2,3 barobar
Infratuzilma	Mehmonxonalar va yotoq o'rinlari soni: 1186 tadan 2200 taga yetdi	Infratuzilmaning yuklanish koeffitsiyenti: o'rtacha 0.72	Mavsumiy darajasining pasayishi xa xizmatlar
Texnologik daraja	Turistik agentliklar soni: 1200 tadan 1800 taga oshdi	Raqamli transformatsiya indeksi (onlayn bronlash, e-booking)	Tranzaksiya xarajatlarining 30% gacha qisqarishi
Barqarorlik	Umumiy turistik tushum hajmi: 1.3 mlrd dan 2.5 mlrd ga yetdi	Har bir xodimga to'g'ri keladigan samaradorlik (KPI): +40%	Sohada yangi yuqori malakali ish o'rinlari yaratilishi

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2019-yilga nisbatan 2024-yilda sayyohlar soni o'sishi bilan birga, eng muhim sifat ko'rsatkichi – bir sayyohning o'rtacha sarf-xarajati deyarli 1.8 barobarga oshgan. Bu

⁷ Vanhove, N. (2017). The Economics of Tourism Destinations: Theory and Practice. Elsevier.

⁸ Muallif ishlanmasi



ko'rsatkich shuni isbotlaydiki, O'zbekiston endilikda nafaqat "arzon yo'nalish", balki yuqori sifatli va turli xil xizmatlarni taklif etuvchi (ziyosat, gastronomik, sport, tog' turizmi) destinatsiyaga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya indeksining o'sishi esa, xalqaro e-booking tizimlarining (Booking.com, Airbnb, Expedia) milliy bozorga chuqur kirib kelgani va mahalliy tadbirkorlarning texnologik savodxonligi oshganidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston turizm sanoatida miqdoriy ko'rsatkichlardan sifat ko'rsatkichlariga o'tish jarayoni iqtisodiy barqarorlikning asosiy shartidir. Tadqiqotda taklif etilgan "Ko'p o'lchamli baholash mexanizmi" orqali olingan natijalar bir qator muhim ilmiy va amaliy xulosalarni muhokama qilishga imkon beradi.

Birinchidan, iqtisodiy multiplikator samarasi tahlili shuni ko'rsatdiki, turizm industriyasi faqatgina valyuta tushumi manbai emas, balki hududiy iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchdir. O'zbekistonda turizm klasterlarining shakllanishi masalan, Samarqand va Buxoro turistik zonalarida transport, hunarmandchilik va oziq-ovqat sanoatida bandlik darajasini bevosita oshirmoqda.

Ikkinchidan, infratuzilmaviy yuklanish indeksi bo'yicha olingan natijalar turistik markazlarda "tadbirkorlik konsentratsiyasi" muammosini ochib berdi. Muvaffaqiyatni faqat mehmonxonalar soni bilan o'lchash, infratuzilmaning (yo'l, suv, energiya ta'minoti) mavsumiy o'sishlarga bardosh bera olish qobiliyatini hisobga olmaydi. Muhokama jarayonida aniqlandiki, hududiy infratuzilmani innovatsion boshqarish orqali turizm mavsumiyligini kamaytirish va past mavsum davrida ham barqaror daromadni ta'minlash imkoniyatlari mavjud. Bu, ayniqsa, ekoturizm va agroturizm kabi yangi yo'nalishlarni an'anaviy infratuzilmaga integratsiya qilishni talab etadi.

Uchinchidan, raqamli transformatsiya masalasini muhokama qilar ekanmiz, raqamli texnologiyalar faqatgina qulaylik vositasi emas, balki turizm mahsuloti tannarxini tushiruvchi iqtisodiy omil ekanligi ma'lum bo'ldi. Raqamli platformalar orqali vositachilar xarajatlarining qisqarishi natijasida turistik mahsulot raqobatbardoshligi oshadi. O'zbekistonda "Smart Tourism" elementlarining joriy etilishi, xususan, onlayn navigatsiya va integratsiyalashgan to'lov tizimlari turistlarning mamnunlik darajasini 20-25% ga oshirayotgani kuzatildi.⁹

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muvaffaqiyatni baholashda "har bir turistga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat" ko'rsatkichi eng muhim strategik indikator bo'lishi kerak. Faqat sayyohlar sonini oshirishga intilish resurslarning tezroq yemirilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, O'zbekiston turizm sanoati uchun "yuqori qiymatli va kam ta'sirli" modelini qo'llash va uning muvaffaqiyatini aynan shu prizmadan baholash maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston turizm sanoatidagi muvaffaqiyatni baholash mexanizmlarini tadqiq etish natijasida olingan nazariy va amaliy xulosalar shuni ko'rsatadiki, soha rivojini faqatgina miqdoriy o'sish sur'atlari bilan baholash iqtisodiy jihatdan yetarli emas. Tadqiqot doirasida ilgari surilgan "Ko'p o'lchamli baholash mexanizmi" turizmning milliy iqtisodiyotga ta'sirini yanada chuqurroq va xolisona tahlil qilish imkonini beradi.

Olingan natijalar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Iqtisodiy sifat ustuvorligi: Turizmning muvaffaqiyati kelgan sayyohlar soni bilan emas, balki ularning iqtisodiyotda qoldirgan sof foydasi va multiplikativ samarasi bilan o'lchanishi lozim. Tahlillar O'zbekistonda ushbu ko'rsatkichni oshirish uchun turistik xizmatlar zanjirida mahalliy mahsulotlar ulushini ko'paytirish zarurligini ko'rsatdi.

2. Infratuzilmaviy barqarorlik: Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda "yuklanish indeksi"ni hisobga olish, resurslarning (tabiiy, madaniy, texnik) yemirilishini oldini oladi va xizmat ko'rsatish sifatining pasaymasligini ta'minlaydi.

3. Raqamli integratsiya: Raqamli transformatsiya turizm mahsulotining raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omildir. Raqamli indikatorlarning baholash tizimiga kiritilishi sohaning shaffofligini va investitsion jozibadorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

- Milliy statistik tizimni takomillashtirish: Turizm sohasida "Turizm sun'iy yo'ldosh hisoblari" (TSA) tizimini to'liq joriy etish va baholash metodikasiga "har bir turistning o'rtacha xarajati" indikatorini asosiy KPI sifatida kiritish;

- Sanoatni raqamlashtirishni rag'batlantirish: Turistik korxonalarning raqamli tayyorgarlik darajasini oshirish uchun imtiyozli kreditlash va texnologik grantlar tizimini yo'lga qo'yish;

- Hududiy muvozanatni saqlash: Turistik oqimni faqat an'anaviy markazlarga (Samarqand, Buxoro, Xiva) emas, balki yuqori multiplikativ salohiyatga ega bo'lgan ekoturistik va agroturistik hududlarga yo'naltirish orqali "infratuzilmaviy bosimni kamaytirish".

⁹ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2019-2024 yy. hisobotlari).

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <http://lex.uz//ru/docs/-5841063>
2. UNWTO (2024). World Tourism Barometer and Statistical Annex, Volume 22.
3. World Economic Forum (2024). Travel & Tourism Development Index 2024: Restoring Momentum.
4. Porter, M.E. (1998). On Competition. Harvard Business Review Book.
5. Frechtling, D.C. (2012). The Economic Impact of Tourism: Overview and Concepts. Routledge.
6. Butler, R.W. (2006). The Tourism Area Life Cycle: Applications and Modifications. Channel View Publications.
7. Tuxliyev N., Abdullayeva T. (2020). Turizm iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik. Toshkent.
8. Safarov B.S. (2022). Turizm sohasini ekonometrik modellashirishning nazariy va uslubiy asoslari. Monografiya.
9. Aliyeva M.T. (2021). O'zbekistonda turizm xizmatlari bozorini rivojlantirish strategiyalari. Ilmiy maqola.
10. Vanhove, N. (2017). The Economics of Tourism Destinations: Theory and Practice. Elsevier.
11. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2019-2024 yy. hisobotlari).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>